

O'QUV DASTUR PASPORTI

O'quv dastur uzluksiz tibbiy va farmasevtik ta'lim muvofiqlashtiruvchi kengashning _2024 yil 6 iyuldagi №_MMO-708-2024 sonli bayonnomasi asosida tasdiqlangan.

Amal qilish muddati 2026 yilgacha

Ta'lim muassasasi nomi	Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi		
Kafedra/ bo'lim	Bolalik davri asab kasalliklari		
O'quv dastur nomi	“ Spinal mushak atrofiyasi tashxisoti va zamonaviy davolash prinsiplari”		
O'qish turi	Mavzuiy malaka oshirish		
O'quv dastur muallifi/ mualliflari	Shamansurov Sh.Sh., Gulyamova M.K., Saidazizova Sh.X., Gulyamova D.N.		
Siklning umumiy soati	72 kredit		
Siklda dars beradigan o'qituvchi va trenerlar			
 t.f.d., professor Shamansurov Sh.Sh.	 t.f.n, dosent Gulyamova M.K.	 t.f.d., dosent Saidazizova Sh.X.	 t.f.n., dosent Gulyamova D.N.
Maqsad	Siklni tashkillashtirishdan maqsad sog'liqni saqlashni amaliy tizimida faoliyat ko'rsatayotgan «Ona va bola skrining» markazi shifokorlari (ya'ni genetik, bolalar nevrologlari), birlamchi tizim oilaviy shifokorlari, pediatrlar, bolalar nevrologlari va boshqa tor mutaxassislarini bolalarda uchraydigan nasl nerv - mushak kasalliklarini chuqur o'rganish borasida bilimlarini takomillashtirish bo'lib hisoblanadi. Oxirgi vaqtda bolalar orasida ko'p uchraydigan va ular natijasida nogironlik va o'lim xolatlari ko'p kuzatilayotgan xolatlari nafaqat bolalar nevrologlarini, balki OSh va pediatrlarni xam ushbu masala yuzasidan		

	bilimlarini boyitishni taqozo qilyapti.
Siklga taklif qilingan mutaxassislar - kontingent	«Ona va bola skrining» markazi shifokorlari, stasionar, ambulatoriya muassasalari oilaviy shifokorlari, pediatrlari, bolalar nevrologlari va boshqa bolalar tor mutaxassislari
Sikl vazifalari	- Mavzular bo'yicha bilimlarini chuqurlashtirish va takomillashtirish; - Nasliy nerv-mushak kasalliklari, shuningdek orqa miya amiotrofiyasini tashxislashning asosiy usuli bo'yicha bilimlarni shakllantirish; - Bemorlarni nazorat qilish taktikasi bo'yicha bilimlarni takomillashtirish; - Spinal mushak atrofiyasi bilan og'rigan bemorlar va ularning oilalariga tibbiy-genetik maslahat berishda kasbiy kompetentlikni oshirish; - Bemorlarni davolashda va davo usulini tanlashda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish; - Birlamchi tizim shifokorlariga, stasionar shifokorlariga malakaviy yordam sifatida zamonaviy tashxislash va davolash usullarini yoritishdir; - Tibbiy etika va deontologiya, tibbiy psixologiya muammolarini o'rganib chiqish, bilimlarni yangilab, amaliyotga yangi bilimlar bilan tadbiq etish.
Sikl tarkibi	1.MODUL: Asab tizimining taraqqiyoti, klinik anatomiya va fiziologiyasi 2.MODUL: Erta yoshdagi bolalarda "Bo'sh bola" sindromining klinik belgilar majmuasi 3.MODUL: Nerv -mushak kasalliklarining zamonaviy klinik-genetik tushunchalari 4.MODUL: Spinal mushak atrofiyasi xaqida umumiy tushuncha 5.MODUL: Spinal mushak atrofiyasini tashxislash, tibbiy ko'rsatmalar va diagnostika usullaridan foydalanishga qarshi ko'rsatmalar 6.MODUL: Skrining markazi faoliyati 7.MODUL: Patogenetik davolash va uning monitoringi 8.MODUL: Tibbiy reabilitasiya, tibbiy ko'rsatmalar va reabilitasiya usullaridan foydalanishga qarshi ko'rsatmalar

O'qish bazalari

1. Shaxar 1 son bolalar klinik shifoxonasi



2. U.K. Qurbonov nomidagi bolalar psixonevrologik shifoxonasi



3. Respublika "Ona va bola skriningi" markazi

